


IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH




2023-yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 309,3 mlrd. so‘m, (dollar ekvivalentida 554,0 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,5 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



2023 yil 1-iyul holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022-yil bilan solishtirganda o‘shish sur‘ati 73,4 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 52,2 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 21,5 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 26,3 foiz ulushni tashkil etdi.



Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi
(2023- yil yanvar-iyun)

	Jami	shu jumladan: mulkchilik shakllari bo‘yicha:	
		davlat	nodavlat
Jami investitsiyalar, mlrd. so‘m	6 309,3	770,3	5 539,0
<i>shu jumladan: moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>			
davlat byudjeti mablag‘lari	590,5	585,4	5,1
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jang‘armasi	105,4	105,4	-
korxonalar va aholi mablag‘lari	2 542,7	71,0	2 471,7
chet el investitsiyalari va kreditlari	2 258,1	7,9	2 250,2
bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	812,6	0,6	812,0
Tiklanish va taraqqiyot fondi	-	-	-

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta‘minot tizimini qo‘llab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan.




Qurilish ishlari
(2023- yil yanvar-iyun)

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikro-firmalar	Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi foiz hisobida

Jizzax viloyati	1 939,0	96,5	1 439,8	402,7
<i>shahar:</i>				
Jizzax	881,2	57,3	755,7	68,3
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	23,5		10,5	13,0
Baxmal	70,9		29,3	41,6
G‘allaorol	100,9		54,6	46,3
Sharof Rashidov	349,5		296,0	53,5
Do‘stlik	42,2		23,4	18,8
Zomin	165,0	39,1	86,3	39,6
Zarbdor	56,5		32,3	24,2
Zafarobod	25,5	0,1	7,7	17,8
Mirzacho‘l	32,8		15,7	17,1
Paxtakor	87,6		69,9	17,7
Forish	90,1		52,2	37,8
Yangiobod	13,2		6,2	7,0




2023 yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 96 469,5 mln. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022 yilning mos davriga nisbatan 88,8 foizni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022 yilning mos davrida ko‘rsatkich darajasidan 3,4 foiz punktga ko‘payib, 5,0 foiz tashkil etdi.



Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta'minot tizimini qo'llab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan.



2023- yilning yanvar-iyun holatiga alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foizda)



- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Ishlab chiqarish sanoati
- Qurilish
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash
- Turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalarga qarashli sanoati
- Boshqa faoliyat turi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

(mlrd. so'm)

	Yanvar-iyun					
	2021 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2022 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2023 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Jami	4 051,6	100,0	5 412,5	100,0	6 309,3	100,0
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>						
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	530,5	13,1	1 030,5	19,0	583,8	9,3

davomi

	Yanvar-iyun					
	2021- yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2022- yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2023- yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda
tog‘-kon sanoati	419,9	10,4	419,9	7,8	824,8	13,1
ishlab chiqarish sanoati	1815,9	44,8	2315,9	42,8	2886,6	45,8
elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	91,2	2,3	91,2	1,7	199,5	3,2
suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	111,6	2,8	111,6	2,1	271,3	4,3
qurilish	333,4	8,2	333,4	6,2	258,8	4,1
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	353,7	8,7	353,7	6,5	278,8	4,4
tashish va saqlash	37,1	0,9	37,1	0,7	72,9	1,2
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	3,9	0,1	3,9	0,1	21,5	0,3
axborot va aloqa	10,1	0,2	10,1	0,2	123,0	1,9
moliyaviy va sug‘urta faoliyati	4,8	0,1	4,8	0,1	6,8	0,1
professional, ilmiy va texnik faoliyat	42,9	1,1	42,9	0,8	208,7	3,3
ta‘lim	36,9	0,9	36,9	0,7	67,5	1,1
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	25,7	0,6	25,7	0,5	63,6	1,0
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	183,9	4,5	183,9	3,4	330,1	5,2
san‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	8,9	0,2	8,9	0,2	27,7	0,6
boshqa faoliyat turlari	41,2	1,1	402,1	7,2	83,9	1,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida – 824,8 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 13,1%), ishlab chiqarish sanoatida – 2 886,6 mlrd. so'm, (45,8%) shundan oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda 114,9 mlrd. so'm (1,8%), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishda – 328,0 mlrd. so'm (5,2%), nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishda – 1 115,4 mlrd. so'm (17,7%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 199,5 mlrd. so'm (3,2%), qurilishda – 258,8 mlrd. so'm (4,1%), tashish va saqlashda – 72,9 mlrd. so'm (1,2%), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 278,8 mlrd. so'm (4,4%), axborot va aloqada 123,0 mlrd. so'm (1,9%), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 208,7 mlrd. so'm (3,3%), ta'limda – 67,5 mlrd. so'm (1,1%), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 330,1 mlrd. so'mlik (5,2%) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2023 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 2 258,1 mlrd. so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 73,9 foizni tashkil qildi.




Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi (2023 yilning yanvar-iyunida)

	Umumiy hajmi (mlrd. so'm)	Shu jumladan:	
		davlat kafolati ostida	to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar
Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar	2 258,1	7,9	2 250,2
shu jumladan:			
davlat	7,9	7,9	-
nodavlat	2 250,2	-	2 250,2

Hisobot davrida viloyat bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi 18,7 foizni tashkil qildi.



Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



O'tgan yilning mos davriga nisbatan ishlab shiqrish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar 49,3 foizga ko'paygan.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida xorijiy investitsiya va kreditlar 18,4 foizga kamaygan.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqalarda xorijiy investitsiya va kreditlar 25,8 foizga kamaygan.

Xorijiy investitsiya va kreditlar bo'yich yuqori ulushga ega tumanlar




O'tgan yilning mos davriga nisbatan tog'-kon sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar 3,3 foizga kamaygan.


Joriy yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 76,7 foizni tashkil qilgan va 2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 49,3 foizga kopaygan, mos ravishda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,3 foizni tashkil qildi.



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investitsiyalar tarkibi





2023 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ifodalangan

	<i>Investitsiyalar hajmi mlrd.so‘m</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshi (ming so‘m)</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
Jizzax viloyati	6 309,3	108,5	4 253,5	106,1
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 109,0	102,0	5 743,2	99,3
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	89,2	102,6	1 851,0	101,1
Baxmal	255,8	104,2	1 526,9	102,0
G‘allaorol	1 245,3	150,4	6 773,7	147,2
Sharof Rashidov	446,8	101,1	1 875,9	98,5
Do‘stlik	43,8	64,6	634,0	63,5
Zomin	312,7	130,7	1 774,3	127,7
Zarbdor	58,3	60,6	626,3	59,2
Zafarobod	89,3	45,7	1 688,9	108,0
Mirzacho‘l	281,1	109,8	5 142,3	44,8
Paxtakor	79,4	72,0	996,8	70,3
Forish	2 269,0	107,1	23 328,9	105,4
Yangiobod	29,6	65,7	1 000,5	64,7

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

Uy-joy qurilishida 330,1 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 5,2 foizni tashkil qildi.



2023 yilning yanvar-iyun oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari

	Barcha manbalar hisobidan			
	Foydalanishga topshirildi		2022 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda	
	jami	shu jumladan: qishloq joylarda	jami	shu jumladan: qishloq joylarda
Uy-joy, umumiy maydoni ming kv.m	303,0	152,2	93,8	82,2
<i>undan:</i>				
yakka tartibdagi uy-joylar	303,0	152,2	96,3	86,0
yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda	-	-	-	-
Umumiy ta'lim va maxsus maktablar, o'quvchilar soni	-	-	-	-
Suv tarmoqlari, km	571,4	499,9	2,4 m.	2,7 m.
Gaz tarmoqlari, km	16,2	5,6	85,3	54,9

2023 yilning yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 303,0 ming kv m bo'lgan 1 356 mingta uy yoki 1 356 mingta kvartira (2022 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 93,8 %), shu jumladan qishloq joylarida 152,2 ming kv m (82,2 %) maydonga ega 659 mingta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 571,4 km suv tarmoqlari (499,9 km qishloq joylarda) va 16,2 km gaz tarmoqlari (5,6 km qishloq joylarda) ishga tushirilib, mos ravishda 2022 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,4 marta va 85,3 foizni, qishloq joylarda esa bu ko'rsatkich suv tarmoqlari 2,7 marta foizni, gaz tarmoqlari 54,9 foizni tashkil qildi.

Suv tarmoqlari qurilishiga 252,5 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 0,7 mlrd. so'm (0,3 %) va suv ta'minoti va kanalizasiya tizimlarini rivojlantirish jamgarmasi mablag'lari hisobidan 105,4 mlrd. so'm (41,7 %) hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 146,4 mlrd. so'm, (umumiy hajmning 58,0 %) o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 292,1 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 292,1 mlrd. so'm (umumiy hajmning 100,0 %) o'zlashtirildi.

Qurilish faoliyati

2023 yilning yanvar-iyun oylarida 1 939,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 104,0 foizni tashkil etdi.

Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish ishlari tarkibi,

mlrd. soʻmda


	yanvar-iyun		
	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Qurilish ishlari hajmi	1 544,6	1 756,8	1 939,0
<i>shu jumladan:</i>			
davlat	169,9	16,0	6,2
nodavlat	1 374,7	1 740,8	1 932,8

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1 932,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 99,7 foizini tashkil qildi.




Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish tashkilotlarining oʻz kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)

2022 yil yanvar-iyun



2023yil yanvar-iyun



■ Davlat mulki

■ Nodavlat mulki



Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi

Qurilish ishlari umumiy hajmining 82,7 foizi binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 10,6 foizi fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 6,7 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan umumiy hajmdan 81,0 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida Jizzax viloyati bo‘yicha jami qurilish ishlari hajmi 1 939,0 mlrd. so‘m nodavlat sektorining ulushi 99,7 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 81,0 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga, 19,0 foizi esa, kapital, joriy ta‘mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.



2023 yil yanvar-iyun oylarida faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘mda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 82,7 foizni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatgichga nisbatan 2,0 foiz punktga ko‘paydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 10,6 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 foiz punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hisyasi 6,7 foizini tashkil etdi.



2023 yil yanvar-iyun oylarida tuman(shahar)lar kesimida qurilish ishlarining korxonalar toifasi bo'yicha ulushi (jamiga nisbatan % da)



Yirik pudrat korxonalarini tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi – 5,0 foizni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining – 74,2 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa, – 20,8 foizga qurilish ishlari bajarildi.

Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri keldi – 45,5 foiz. Mazkur hududda norasmiy sektorning ulushi – 52,9 foizni tashkil etdi.